INTERFAOL METODLARNING BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA TATBIQI

Djabborova Zahro
Alfraganus universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, ularning o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb etishdagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli fanlarda interfaol metodlarni qo‘llash usullari hamda ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini rivojlantirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, interfaol metod, boshlang‘ich ta’lim, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, o‘yin, tajriba, pedagogik texnologiya

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, ularni dars jarayoniga faol jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar zamonaviy pedagogikaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonida bevosita ishtirok etishini ta’minlaydi. Buyuk mutafakkir Sa’diy Sheroziy ta’kidlaganidek: *“Kim bilimni o‘lchar dunyo mol bilan, u gavharni teng qilur sopol bilan”*. Bu fikr ta’limning qadrini anglashda muhim o‘rin tutadi.

Asosiy qism

Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadigan, ularning mustaqil fikrlashini, hamkorlikda ishlashini hamda amaliy tajriba orttirishini ta’minlaydigan o‘qitish usullaridir. Boshlang‘ich sinflarda ushbu metodlardan foydalanish ayniqsa samarali hisoblanadi, chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar bilimni ko‘proq o‘yin, harakat va tajriba orqali o‘zlashtiradilar.

Boshlang‘ich ta’limda matematika, ona tili, o‘qish savodxonligi, tasviriy san’at, ingliz tili va tabiiy fanlar kabi fanlar o‘qitiladi. Ushbu fanlarning har birida interfaol metodlardan samarali foydalanish dars sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning miqdoriy, fazoviy va vaqt tasavvurlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, dars jarayonini qiziqarli va jonli tashkil etishga yordam beradi. Amaliyotda “Qiziqarli hisob”, “Tirik raqamlar”, “Arifmetik loto”, “Doiraviy misollar”, “Zinacha”, “Svetafor”, “Magazin” kabi o‘yin metodlari keng qo‘llaniladi.

“Tirik raqamlar” metodi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu metodning maqsadi – o‘quvchilarga qo‘shish amalini jonlantirilgan obrazlar orqali tushuntirishdir. Dars jarayonida rangli kartochkalar yordamida raqamlar qahramon sifatida tasvirlanadi va qo‘shish jarayoni kichik sahna ko‘rinishida ifodalanadi. O‘quvchilar ushbu jarayonda faol ishtirok etib, misollarni amaliy tarzda yechadilar. Dars yakunida savol-javob orqali natijalar mustahkamlanadi va o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar an’anaviy darslarda tez charchashi mumkin, interfaol metodlar esa ularning e’tiborini doimiy ravishda saqlab turadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini kuchaytiradi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi va kognitiv faolligini oshiradi.

Ona tili darslarida ham interfaol metodlardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, “Gap tuzish” metodi orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga so‘zlar yozilgan kartochkalarni taqdim etadi. O‘quvchilar ushbu so‘zlarni to‘g‘ri tartibga keltirib gap

tuzadilar va keyinchalik uni tasvirlovchi rasm chizadilar. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat nutqiy, balki ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlarning boshlang‘ich ta’limga tatbiqi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar o‘quvchilarda bilimga nisbatan barqaror qiziqish uyg‘otadi, ularni faol, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

Shu bois interfaol metodlardan rejalashtirilgan va tizimli ravishda foydalanish zamonaviy boshlang‘ich ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sidiqova D.Sh. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2022.
2. Ibotova D.Sh. Interfaol ta’lim tushunchasi va pedagogik asoslari. – Toshkent, 2021.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2021.